

**MUSTAQILLIK YILARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI
KATTA GURUH YOSHIDAGI BOLALARDА VATAN TUYG'USI
TUSHUNCHALARINI SHAKILLANTIRISHNING PEDOGOGIK
HUSUSIYATLARI**

*San'atxon Toxirovna Razzoqova
Qo'qon universiteti magistratura
bosqichi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida katta guruh yoshidagi bolalarda Vatan tuyg'usini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari yoritilgan. Bolalarda milliy qadriyatlarni anglash, yurtga muhabbat uyg'otish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash metodlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida pedagogik yondashuvlar, ta'lism metodlari va samarali mashg'ulotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lism, Vatan tuyg'usi, Pedagogika, Vatanparvarlik, Ta'lism metodlari, Milliy qadriyatlar.

KIRISH. Maktabgacha ta'lism bosqichi bola shaxsining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bu davrda bolalarda Vatan tuyg'usini shakllantirish pedagoglarning ustuvor vazifalaridan biridir. Vatanparvarlik tarbiyasi orqali bolalar o'z yurtini sevish, uni asrash va milliy qadriyatlarni hurmat qilish kabi xislatlarni egallaydi. Maktabgacha ta'lism tashkilotlari katta guruh yoshidagi bolalarda Vatan tuyg'usini shakllantirish jarayonini ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan o'rganish, bu boradagi samarali metod va yondashuvlarni tahlil qilish, shuningdek, milliy qadriyatlarni bolalar ongiga singdirishning pedagogik asoslarini aniqlash bugungi maktabgacha ta'lism sohasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan ushbu maqolaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarda Vatan tuyg'usini shakllantirishning nazariy asoslarini o'rganish va tahlil qilish;
- Bolalarda vatanparvarlik hissini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik metod va uslublarni aniqlash;
- Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida milliy qadriyatlarni asosida vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish;
- Bolalarning yurtga bo'lgan muhabbatini mustahkamlashga qaratilgan ta'lism-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish yo'llarini tavsiya qilish;
- Maktabgacha ta'lism tizimida Vatan tuyg'usini shakllantirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur yo‘nalishda dastlabki ilmiy izlanishlar bir qator pedagog olimlar tomonidan olib borilgan bo‘lib, ular maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishga oid nazariy va amaliy asoslarni o‘rganishga qaratilgan. Jumladan, Raximkulova M.B. maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasida vatanparvarlik tuyg‘ularining o‘rni, Tilyabova N. maktabgacha ta’lim tizimida axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari, shuningdek, milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy ishlarni yo‘lga qo‘yish borasidagi ishlari alohida e’tiborga loyiq. Ushbu tadqiqotlarda bolalarning Vatanga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda didaktik vositalar, tarbiyaviy faoliyat turlari, pedagogik yondashuvlar muhim omil sifatida ko‘rib chiqilgan.

Biroq bu tadqiqotlarning aksariyatida vatanparvarlik tarbiyasi umumiylar tarzda, nazariy asosda yoritilgan. Ayniqsa, katta guruh bolalarida “Vatan tuyg‘usi” tushunchasining shakllanishi jarayonida qo‘llaniladigan aniq pedagogik metodlar, bosqichma-bosqich yondashuvlar va individual rivojlanish xususiyatlari chuqur tahlil qilinmagan. Shu bois, bugungi kunda aynan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda vatan tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy-pedagogik masala sifatida e’tirof etiladi. Bolalarda Vatan tuyg‘usini shakllantirishda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- O‘yin texnologiyalari – Vatan haqida qiziqarli o‘yinlar tashkil etish orqali milliy qadriyatlarni bolalarga singdirish.
- Tasviriy san’at – bolalarga vatanparvarlik mavzusida rasmlar chizdirish orqali ularning badiiy tafakkurini rivojlantirish.
- Badiiy adabiyot va ertaklar – milliy ertaklar, dostonlar va hikoyalar orqali Vatan haqidagi tushunchalarni shakllantirish.
- Sayohatlar va ekskursiyalar – tarixiy joylarga sayohat uyuştirish orqali bolalarning Vatan haqidagi tasavvurlarini boyitish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Inson uchun eng oliy qadriyat – bu uning Vatani. Vatan har bir inson uchun muqaddas bo‘lib, uning ravnaqi, obodligi va gullab-yashnashi uchun barchamiz mas’ulmiz. Shu boisdan, har bir inson, avvalo, Vatan kelajagini oldindan ko‘ra bilishi, uni mustahkamlash, rivojlantirish va unga sadoqat bilan xizmat qilishga asosiy e’tiborni qaratishi lozim. Chunki Vatan taqdirini oldindan his etish, uning taraqqiyotiga to‘sinqilik qiluvchi muammolarni bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi.

Vatanparvarlik bilim – bu vatanimizga nisbatan ichki xulq-atvorni shakllantirishni tashkil etadi. Yuksak vatanparvarlik bilimga ega bo‘lgan har bir jamiyat a’zosi o‘z faoliyatida vatanga bo‘lgan munosabatlari orqali uning salomatligi va farovonligini ta’minlashga hissa qo‘shadi. Demak, vatanparvarlik bilim avvaldan

xalqimizning salomatligiga qayg‘ulash, kelajak avlod oldidagi vatan xavfsizligini ta’minlash, vatan resurslaridan oqilona foydalanish, vatanga bo‘lgan ong va his-tuyg‘ularning shakllanishi hamda vatanparvarlik faoliyatiga ega bo‘lishdan iboratdir. Ana shu vatanparvarlik xususiyatlarini o‘zining ichki xulq-atvorida ongli tarzda rivojlantirgan shaxs faqatgina amaliy faoliyat jarayonida vatan bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ehtiyyotkorona munosabatga kirishadi. Boladagi vatan tuyg‘usi, vatanga bo‘lgan sevgi va uni asrashga bo‘lgan ong faqat oila emas, balki maktabgacha ta’lim muassasalarini faoliyatiga ham bog‘liqdir. Shuning uchun, oila va maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga vatanparvarlikni, yaxshi axloqni va vatanni sevish kabi qadriyatlarni tarbiya berish lozimdir.

Vatanparvarlik tarbiyasi bolani oltinday qimmatli insoniyatga aylantirishi mumkin, aksincha noto‘g‘ri tarbiya uning ma’naviy boyligini kamaytishiga sabab bo‘lishi ham ehtimol. Shuning uchun bolaning vatan tuyg‘usini shakllantirishda avvaldan ota-onalar, keyinchalik maktabgacha ta’lim muassasalarini muhim omillar sifatida o‘z o‘rnini egallaydi. Bola tarbiyasida yashab turgan sharoit, atrof-muhit va kishilarning faoliyati katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular bolaning vatanga bo‘lgan sevgi va tuyg‘usini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ushbu sohada oila va maktabgacha ta’lim muassasalarini alohida e’tiborga molikdir. Boladagi yoshligidan vatanparvarlik tarbiyasini berish juda ham zarurdir. Chunki bu davrda bola, to‘l novdasi kabi, vatan qadriyatlari va shu asosda shakllanadi. Bolaning jismoniy va ruhiy pokligi, uning toza va sodiq bo‘lishi vatanimizga bo‘lgan muhabbatning asosidir. Shuning uchun, bolaning tarbiyasida uning kiyim-kichak, ovqatlanish odoblari va kattalar bilan bo‘lgan munosabatlari vatan tuyg‘usini aks ettirishi lozimdir.

Bundan tashqari, ijodiy va ochiq o‘yin-kulgi faoliyatlari davomida bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning zehni va xotirasini mustahkamlash orqali, vatanimizning tarixiy-madaniy merosi va milliy qadriyatlarni qadrlashni o‘rgatishning o‘ziga xos foydasi bor. Xalqimiz orasida «tarbiya ostonaidan boshlanadi» degan mashhur ibora bor. Shu sababli, bunday tarbiyaning eng muhim talablaridan biri – shaxsiy namunaviy ro‘l o‘ynash, ya’ni oila iborati. Birinchi navbatda, ota-onalar va tarbiyachilar farzandlarga vatanparvarlikning eng asosiy unsurlarini tushuntirishlari zarur. Oilada vatanning qadriyatlari sodiqlik, resurslarni isrof qilmaslik va adolatli taqsimlash kabi urf-odatlar o‘rgatilishi lozim. Natijada, biz hayotimizda vatanimizning boy resurslari, uning qadimiy an’analari va milliy merosidan oqilona foydalanishga qaratilgan urf-odatlarni bolalar ongi bilan uyg‘unlashtirgan bo‘lamiz. Vatanparvarlik tarbiyasi sohasi bo‘yicha ishlarni yagona tizimda, muvofiqlashtirib olib borish ham nihoyatda muhimdir.

Maktablargacha ta’lim muassasalarida bolalarni vatanparvarlik bilan tarbiyalash borasidagi kamchiliklarni faqat tarbiyachilarning zimmasiga yuklash to‘g‘ri emas.

Bolalarni vatanparvarlik tarbiyasida xalq ta’limi hodimlari, ijodiy tashkilotlar va ota-onalar qo‘mitalari yaqinidan faol yordam ko‘rsatishlari zarur. Bolalarda vatanimizga bo‘lgan chuqur hurmat va sadoqatni shakllantirish, shuningdek, insoniy fazilatlarni rivojlantirish tarbiyachilarning bilim darajasi va malakasiga bog‘liqdir. Bunda tarbiyachilar bolalarda mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishlari muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilar, bolalarga gunoh va savob, ya’ni vatanimizning boy resurslarini isrof qilmaslik, ortiqcha chiqindilarni tartib bilan yo‘naltirish, atrofdagilarga va vatanimizning merosiga zarar yetkazmaslik, shuningdek, milliy qadriyatlar va an’analarni hurmat qilish kabi asosiy tamoyillarni tushuntirish orqali ularning bilimini oshirishlari zarur.

Ma’lumki, vatan, adabiyot va san’atni sevgan bola hech qachon yomonlikka yo‘l qo‘ymaydi. Bolalarni vatanimizni asrash va vatanparvarlik faoliyatlariga jalb qilish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlarda ham dars berish lozim. Bolada vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirish uchun, hayotning turli jabhalari, uning past-baland qirralari haqida suhbatlashish ba fikr yuritish nihoyatda muvofiqdir. Axir, jamiyatimizga kelajakda nafaqat fizik, kimyoviy ba boshqa fanlar mutaxassislari, balki buyuk vatanparvar insonlar kerak, degan gapni unutmaslik lozim.

O’zbek mrifatparvar shori Abdulla Avloniy shunday degan edi:

«Agar bir kishi vataniga nisbatan hurmatsizlik qilib, uning qadriyatlarini unutsa, bunday kishilardan yaxshilik kutish, yerda turib yulduzlarga umid bog‘lashga o‘xshaydi». Maktabgacha ta’lim muassasalarida katta guruh yoshdagi bolalarda vatan tushunchasini shakllantirish jarayonida quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, katta guruh yoshdagi bolalarning vatan hissiyotiga ta’sir o‘tkazish, ular qalbida yoshlik chog‘laridanoq vatanga bo‘lgan muhabbat uyg‘otish lozim. Bu tarbiya qanchalik erta boshlanib, izchil rivojlantirilsa, u shunchalik ijobiy samara beradi.

Ikkinchidan, bola ongida Vatanni himoya qilish va unga oqilona munosabat o‘rnatish masalalarida faol hayot nuqtai nazarini shakllantirish zarur. Har bir bolada Vatanni asrash, uning qadriyatlariga va tarixiy merosiga sodiqlikni tarbiyalash, shuningdek, Vatanning yutuqlaridan amaliy maqsadlarda foydalanishga urgatish lozim.

Uchunchidan, Vatan tuyg‘usini yuksaltirish uchun vatanparvarlik ta’limi olishni uzluksiz davom ettirish talab etiladi. Vatan tuyg‘usini shakllantirish milliy tarix, madaniyat va urf-odatlarga asoslangan tarbiya jarayoniga tayanadi. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim muassasalarining tarbiyachilari vatan qonunlari va milliy qadriyatlarni chuqur bilishlari lozim. Bunda ular vatan va jamiyatning o’zaro munosabatlari, ya’ni bu moddiy dunyoda kishilarning o’rni, ahamiyati va mohiyatini aks ettiruvchi dunyoqarashlar haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lishadi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida vatanparvarlik monitoringini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Monitoring jarayonida, vatanimizning rivojlanishi, milliy merosimiz, tarixiy obidalarimiz va madaniy qadriyatlarimizning davriy o’zgarishlarini (rasmiy ma’lumotlarga asoslangan tarzda) kuzatib borish, hisobga olish, baholash va istiqbolini belgilash tizimi chuqur o’rganilishi tarbiyachilarining vatanparvarlik haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Bunda ular: vatanparvarlik munosabati, milliy merosni asrash va himoya qilish, shuningdek, vatanimizning milliy va xalqaro ahamiyati haqida to’liq bilimga ega bo’lishlari lozim. Chunki, maktabgacha ta’lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari hayotga mustaqil qadam qo’yanlarida, ular vatanimizning «boysindiruvchisi» emas, balki uning yaratuvchisi va himoyachisi bo’lishlari zarur. Bu yo’nalishda, albatta, ularga ustozlari, murabbiylari va tarbiyachilarini faol yordam ko’rsatishlari maqsadga muvofiqdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta guruh yoshidagi bolalarda Vatan tuyg‘usini shakllantirish nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy jarayonning ham asosiy yo’nalishlaridan biridir. Vatanparvarlik tuyg‘usi bolalarga yoshlikdan singdirilsa, kelajakda yurtga sodiq, milliy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, ona Vatanga fidoyi insonlar shakllanadi.

Tahlil qilingan pedagogik metod va yondashuvlar shuni ko’rsatadiki, bolalar ongida Vatan tushunchasini mustahkamlash uchun turli innovatsion usullarni qo’llash zarur. Bunda badiiy adabiyot, tasviri san’at, teatr elementlari, o‘yin texnologiyalari, ekskursiyalar va tajribaviy mashg‘ulotlar kabi pedagogik yondashuvlarning samaradorligi yuqori bo‘lishi aniqlangan.

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim tizimida Vatan tuyg‘usini shakllantirish doimiy va izchil amalga oshirilishi lozim bo‘lgan jarayonlardan biridir. Bolalar yoshligidan o‘z yurtining tarixi, madaniyati va an’analari bilan tanishtirilib, ularning milliy g‘ururi mustahkamlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, kelajak avlodning yurt taraqqiyotiga befarq bo‘lmagan, Vatanini ardoqlaydigan, uni rivojlanadirish yo‘lida faol harakat qiladigan insonlar bo‘lib yetishishiga zamin yaratiladi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Birinchi qism. T.: -O’, 1991.
2. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Ikkinci qism. T.: O’qituvchi, 1992.
3. Raximkulova M.B. «Boshlanich sinf ukuvchitarini darodan tankari mashkulotlarda ekologik kadriyatlar asosida tarbiyalas», ped. fannom. angoref. -T.: 2000.
4. Tilyabova N. «Maktabgacha katta guruh bolalarida insonparvarlik his-tuyqularini tarbiyalash» risola. – I.: Fan, 1994.